

# TIZIM+TUGUN=YECHIM

Mehribon va rahmdil Alloh taologa hamd-u sanolar bo'lsin. Rasulimiz Muhammad (s.a.v)ga salovatlارimiz bo'lsin. Assalomu alaykum va rahmatullohu va barakotuhu. Bismillahir Rohmanir Rohim...

Kirish.

- 1.O'zbekiston Respublikasida Oliy, o'rta va boshlang'ich ta'lim tizimi. Jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissalar.
- 2.Pedagog ya'ni muallim kim edi va bugun bu kasbning jamiyatdagi o'rni qay darajaga borib yetdi? Muallimning o'zi bugun bu nomga munosibmi? Nodavlat o'quv muassasalarining huruji, yohud bilim bozorlari...
- 3.Ta'lim dargohlarida xavfsizlik tizimi, biz yoshlar hayotiga qanchalik ma'suliyatlimiz?
- 4.Ta'limning tarbiyadan ajralishi. XXI asr. Rivojlangan, tarbiyadan ayro, ertasi mavhum tizimlar.
- 5.OAV. Media. Tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarning jamiyatimiz uchun ziyonlari.

## KIRISH

Mehribon va rahmdil Olloh taolaga hamdu sanolar bo'lsin. Rasulimiz Muhammad (s.a.v)ga salovatlarimiz bo'lsin. Assalomu alaykum va rahmatullohu va barakotuhu, aziz vatandosh. Bugun yuragimga ancha yillardan beri zirapchadek sanchilib kelayotgan ta'lim tizimimizdagi ayrim muammolarni va, albatta, ularni yechimlarini Alloh taolo qodir etganicha yoritib berishga harakat qilaman. Doimo bir muammo gapirilar ekan uni amaldagi holatidan ko'ra qog'ozlarda va yoki minbarlarda so'zlanuvchi nutqlarda qolib ketganiga guvoh bo'lamiz. Ba'zan esa chiqarilgan qonunlar telekanallardagi ko'rsatuvlarda, sanoqli ziyolilargina ko'z yugurtiradigan gazeta va jurnallarda qolib ketganiga, Hokimiyat va mahalla komitetlari tomonidan chiqarilib devorlarga osib qo'yilgan shiorlarni aytmaganda ba'zi qarorlarni amalda ko'rish va topish mushkul. Achchiq haqiqat bo'lishi mumkin, lekin tanqid va muammolarga tashqaridan nazar tashlash va gapirgan odam kim ekaniga emas so'zlanayotgan gapga, o'rtaga tashlangan fikrga e'tibor qaratib muammoni hamjihatlikda yechish vaqti keldi deb o'ylayman. Chunki hayot davom etar ekan yashagan va intilgan odamni ham, qorin g'amidan boshqa tashvishi bo'lmayotgan odamni ham umri, vaqti tugab boryapti. Ayni bu holatni davlatlar, mamlakatlar qiyosida ham ko'rish mumkin. Soyada qolgan nihol, quyoshga talpingani bilan soyada qolib ketgani va tepasidagi daraxtni ostida uning qulashini kutib yashaydi. Gegemon davlatlar soyasida yashovchi ojiz mamlakatlar ham qachonki gegemonlar soyasida qolar ekan, kutish va qulluq qilishga mahkumdirlar. Bu holatda davlatlarning kuchi, hududi, aholisi bilan emas, aksincha, aql-zakovati, tafakkuri va eng asosiysi, e'tiqodi bilan belgilanadi. E'tiqodi mustahkam davlat - buyuk davlatdir.

Davlat sifatida e'tiqod bu millatning, davlatning milliy g'oyasi, milliy tuyg'ulari, milliy yo'lidir. Hech bo'lmaganda bu yo'lni anglash, tushuna olish uchun va bu yo'lni zamon sayin rivojlantirib borish uchun ilmi yosh avlodga davlat doimo muhtojdir. Davlat uchun kerak bo'lgan, mamlakat rivoji, milliy g'oyasini, ertangi yo'lni belgilab beradigan yosh avlod ta'lim bilan birga tarbiyaga va ota bobolarining e'tiqodiga ega bo'lishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim va tarbiya har qanday zamon va makonning yuragi, asosiy kuchidir. Umumiy gaplardan chetlanib mamlakatimizdagi ayni tizimga e'tibor qaratsak. Xo'sh, vijdonan aytadigan bo'lsak, bu qoniqarli holatmi? Biz doimo kichik yoki katta ishni qilgan bir nechta odamlarga qarsak chalish bilan vaqtdan, fursatdan yutqazib qo'yishimizni o'ylamaymiz. Allamolarning bir gapi bor: "Yaxshilik maqtovg'a muhtoj emas, ammo yomonlik qoralanishi shart". Ayni shu fikrdan kelib chiqib, bugun qilingan va bajarilayotgan keng qamrovli ishlarni maqtashdan chetlanib, qoralanishi shart bo'lgan nuqsonlarni yoritib, yechim topishga harakat qildim. Qilinishi kerak bo'lgan ishlarni, qilishi kerak bo'lgan insonlar bajarar ekan, ularga olqish shart emas. Avtobusda manzilimizga sog' omon yetkazib qo'ygani uchun haydovchiga qarsak chalmaymiz-ku, shunchaki yo'l haqini beramiz. Yo'l haqi bu yerda bizning fuqorolik burchimiz. Lekin o'z o'rniga nomunosib tarzda qilinishi kerak ishlarni qilmagani uchun bir qator qoralashga haqlimiz va bunga yechim topishga majburiy. Bu bizning ham fuqarolik, ham odamiylik tomonidan burch va majburiyatimizdir...

Bu mavzuga qo'l urar ekanman, oldimga nafsmdan kelib chiqqan holda biror bir maqsad qo'yib emas, aksincha, davlatimizning butun dunyo hamjamiyati oldidagi o'rnining yuksalishiga, vatandoshlarim va kelajak avlod o'zligimizni, kechagi kunni unutmashligi va boshqalarning

g'oyalarga bilimsiz holda ergashmasligini oldini olish maqsadini qo'yib, shu vaqtgacha ko'rgan va o'rganganlarimdan kelib chiqib o'z fikrlarimni bildirib o'tdim.

Mavzu bilim va tarbiyaga bog'liq bo'lgani uchun, bor tasavvurimizni yig'ib, butun dunyodagi bilimni eng qisqa doirada umumlashtirsak YAXSHI va YOMON so'zlari ortida to'planar ekan. Biz bilamizki hayvonot va tabiatga foyda beruvchi, insoniyat rivoji va ehtiyojlari uchun xizmat qilish uchun olinadigan har qanday bilim yaxshi bilimdir. Buning aksi tanazzul va jaholatga yetaklovchi bilim – yomon bilim. Betaraf bo'lish mumkin emas. Chunki bizga ma'lumki, oldinga harakatlanmayotgan har qanday jism, orqaga harakat qiladi. Demak, yaxshi bilimdan bahra olmayotgan har shaxs, yomon bilim changalida xarob bo'lmoqda. Bunga hayotiy misol keltirsam: bola tug'ilib ayni bir yoshga yetdi. Bungacha bir muncha ko'nikmalarga ega bo'ldi. Do'stlari yoki jamiyatdagi ayni shaxslar unga sigaret chekishni o'rgatdi(qanday tortiladi, nafas qancha ushlab turiladi va hk.) bugungi kunda bu - oddiy hol, lekin bir ma'noda sigaret chekish uchun bola dars oldi. Buni qiziqish va o'zga bir hayajon bilan o'rgandi. Aybdor kim? Jamiyat, davlat, muhit, ota-ona... yo'q!!! Asosiy aybdor shu yomon bilim uchun unda imunitet hosil qiladigan yaxshi bilim bo'lmadi. Bu aytganim yer yuzidagi to'rt okean suvlarini qo'shib, igna uchida undan olingan maydagina bir tomchi, xolos. Ahvol qay darajada yomon va achinarli ekanligiga derazadan tashqariga nazar solaylik va xolisona baho beraylik. Bir jamiyat sifatida naqadar tubanlashib bormoqdamiz. Biz bugun jamiyatimiz rivojiga hissa qo'shmayapmizmi, demak, tanazzuliga, aynan, bizlar sababchimiz. Bu bilan hech qanday ishlar qilinmayapti demoqchi emasman. Yurtboshimiz, viloyat, tuman va shahar hokimlari mas'ul shaxslar, albatta, ayni ishlarni qilishmoqda. Lekin boshida aytganimiz kabi yaxshilik maqtovga muhtoj emas. Aslida ular qilishi kerak bo'lgan ishlarni bajarishmoqda va ba'zi o'z o'rniga nomunosiblarni aybi shu bilan yopilib davlatimiz, sekin bo'lsa-da rivojlanmoqda. Lekin hamma yoki ko'proq qism o'z vaqtida o'z ishini qilsa va'da beramanki, davlatimiz bir necha yil ichida eng rivojlangan davlatlar ichida peshqadamlikka erisha oladi har sohada.

Asadbek G'ofurov Jo'rabek o'g'li

## O'zbekiston Respublikasida Oliy, o'rta va boshlang'ich ta'lim tizimi. Yuklatilgan vazifalari. Ta'lim va tarbiyaga, jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissalarini.

Odatda, ta'lim tizimimiz haqida gap ketar ekan, eng avvalo, boshlang'ich, o'rta va so'ngida oliy ta'lim tizimi tilga olinadi. Men esa aynan o'rta va boshlang'ich ta'lim tizimimizda dars berib kelayotgan kadrlar, aynan oliy ta'limni tamomlashidan kelib chiqib, eng avvalo, oliy ta'limdan boshlashni to'g'ri deb o'yladim. Aslida, qay birini birinchi yoritish muhim emas, chunki ayni tizimlar xuddiki bir doira ichidagi uch nuqtadirki, bir birlariga boshi va oxiridan bog'liq bo'lib ajratish mumkin emas. Ajratib qo'yar ekanmiz, geometrik uch shaklga duch kelamiz:



Endi o'ylab ko'raylik, boshi va oxiri bor bo'lgan kichik geometrik kesmalarni qayerlarda ishlatamiz. Sanoqli joylardagina. Lekin doiraga har kuni har lahza muhtojmiz. Har shakl borki, doira atrofida, doira asosiga quriladi va bu mukammal shakllardan biridir. Bu mantiqdan kelib chiqar ekanmiz bu uch tizimni bir biridan ajratish mutlaqo mumkin emas. Aslida, bu holatni turli yo'llar bilan muhokama qilish, fikrlar bildirish mumkin va bildirib kelinmoqda ham. Lekin yechim qayerda. Yechim shu muhokamaga tashqaridan nazar tashlashda va xolis fikr bildirib, kelishilgan holda o'rtadagi tugunni yechishda.

### Yechim:

Yurtimizda oliy ta'lim tizimini rivojlangan mamlakatlardagi kabi kredit tizimiga o'tkazish ayni muddao bo'lardi deb o'ylayman. O'tkazish deganda bo'lar-bo'lmas o'zgarishlar kiritib dasturamal qilish emas, aksincha, takomillashgan holda o'zgartirish. Ya'ni, bizning ta'lim sistemamizda davomat masalasi doimo birinchi navbatda bo'lib keladi. Davomat nega bunchalik muhim? Yoki davomatga nega tizim majburlashi kerak, talaba yoki o'quvchining o'zi intilishi o'rniga? Keng qamrovda kredit tizimini joriy qilish kerakki, talaba yetarli bal to'plash uchun boshini ixtiyoriy yoki beixtiyor kitobga egsin. Davomat esa o'z o'zidan paydo bo'ladi. Albatta, baholash mezonlarida ham adolatli bo'lish talab etiladi bu holatda ma'sul shaxslardan. Doimo tilga olinadigan qog'ozbozlikni uzil –kesil chetga chiqarib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samimiyatni uyg'otish maqsadga muvofiq bo'ladi. Talaba bir yo'nalishga universitetga o'qishga kirar ekan, uning oldidagi har yillik rejani universitet qo'yishi kerak, lekin qachon, qaysi vaqtda o'qish, qaysi fanlarni o'qish talaba ixtiyorida qolsin-ki, talabada ijtimoiy hayot uchun vaqt bo'lsin. Baholashga kelsak adolat o'rnatilgan holda, talaba har semestr(yarim yillik)da o'ziga yuklangan balni to'plashi, to'play olmasa, ayni fanlardan qayta to'lov asosida o'qishi talab etilsa, har qanday talaba bir fan uchun ikki marta to'lov qilishni istamaydi va bu ota-ona oldidagi burchni

ham uyg'otadi. Bugun tashqaridan haybatli bo'lib ko'ringan ilm dargohlarimizdagi ichki siyosat, agarda ichkaridan, yaqindan turib xolisona kuzatilsa, uni nurab borayotganini ko'rish mumkin. Minglab talaba uchun sarflanayotgan xarajatlar, qilingan sharoitlarga javoban bir necha yuz talaba vijdonan ilm oladi. Qolganlar esa diplomni olguncha, davomat uchun ta'lim dargohiga kelib, bilim oluvchilar va o'qituvchilarni asablariga zarba berish bilan band bo'ladi. Bularni barchasini shoshmasdan, har soha, har eshikka nazar tashlab, birma bir tuzatib, ortiqcha shoxlarni kesib, yaralarni davolashimiz va kemptiklarni to'ldirishimiz kerak.

Bular oliy ta'limning o'zigagina emas, balki o'rta ya'ni, maktab va kollejlardagi holatga ham taalluqli. Lekin maktab va kollejlarda o'quvchi nisbatan yosh va qisman hali buzilib ulgurmagani sabab ahvol bir muncha qoniqarli deyish mumkin. Lekin bu ahvolga ko'z yumish mumkin emas. Maktablarda ham o'quvchi oldiga har bir chorakda ayni bir rejani qo'yishimiz kerak. Agar bir chorakni o'quvchi bepul ta'lim tizimida o'qib o'z rejasini bajarib tugatmasa ayni chorakni qayta o'qitish va albatta, bu holatda qiymatli miqdorda jarima puli to'lash. Albatta bu, avvalo, ota-ona uchun yoqimsiz holat va bolasi uchun maktab yoki kollej davrida ortiqcha pul sarflashni istamaydi va maktab va kollejarimizda o'z--o'zidan davomat yaxshilanadi, o'quvchilar har chorakda ayni rejani bajarish uchun bor imkoniyatlari bilan harakat qilishadi.

Maktabgacha ta'lim tizimiga kelsak, bog`chalarimiz bugun ta'limga qanday hissa qo'shmoqda? Deyarli sezilarsiz. Negaki, yozish va o'qishni aksar o'quvchilar boshlang'ichda – birinchi sinfda o'rganishadi. To'g'ri, bugun bog`chalarda ingliz, rus tillarini o'rgatishga sharoitlar bor. Bolalar uchun erkinlik va qulayliklar ham. Lekin men kuzatib shuni ko'rmoqdamanki, bugun va kecha ham bog`chalarimiz ota-onalar o'rniga bolalarga ayni vaqtdan ayni vaqtgacha qarab turuvchi bir enagalar dargohiga aylanib ulgurgan. Rivojlangan mamlakatlarda 9 yoki 10 yoshli bola shahar markaziga tushib qolsa, hech ikkilanmay o'z uyini, ota onasini topa oladi. Chunki qachon, kimga, qayerga qo'ng'iroq qilishni, qayerga murojaat qilishni bilishadi. Va shu asnoda tegishli idoralar ham doimo ma`suliyat ostida ishlashadi. Bizda 10 yoshli bola kechirasizku agar begona bir muhitda qoldirilsa darhol o'zini yo'qotib qo'yadi. Nega? Chunki jamiyat haqida, qachon qanday harakat qilish kerakligi haqida bir bilimga ega emas. Shunday ekan bog`chalarda tarbiyachilar bolalarga faqat ertalabdan kechgacha enagalik qilib bir nechta yangi so'zlarni o'rgatgandan ko'ra jamiyat haqida, jamiyatda kim bilan qanday muomalada bo'lish haqida ozgina fikr yuritishsa, va o'rgata olishsa, bu bizning eng oliy yutug'imiz bo'lardi. Chunki jamiyat bu – bizmiz. Jamiyat bu – Davlatimizdir.

## **Pedagog ya'ni muallim kim edi va bugun bu kasbning jamiyatdagi o'rni qay darajada? Nodavlat o'quv muassasalarining huruji, yohud “Bilim bozorlari”.**

Har bir bilimli yoki bilimsiz insonga ma'lumki, jarrohlik kasbi juda mas`uliyatli va nozik kasblar sirasiga kiradi. Jarrohlar bir necha lahzada bir insonni o'limdan saqlab qolishi va yoki o'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Va shu kabi harbiylik ham shu qadar mas`uliyatli kasbki, harbiylarimiz har lahzada kelishi mumkin bo'lgan xavfda ogoh turib butun bir davlatning tinchligini ta'minlashadi. Lekin ozgina tasavvurni ishga solsak. Bu buyuk kasb va ma`suliyat egalari o'z ishlarini qayerdan o'rganishgan? Mana aynan shu savolga kelganda ko'pchilik, xolislikdan qochishga urinadi. Albatta, dunyoda har qanday kasb borki, bu kasb egasiga har doim muallim ta'lim beradi. Muallim uni kulol loyga shakl bergani kabi shakl beradi, loy uni xohlasa va

xohlamasa ham. Va bir qiziq jihati shuki, ayni muallimni ham muallimi bo'ladi. Bu eng ulkan va tepada turib aylanuvchi va boshqa doiralarni aylantiruvchi asos bo'lgan doiradir. Lekin, afsuski, bugungi kunga kelib bu doirani shu qadar pastga tortishga urindik-ki, doirani ichidagi harakatlanuvchilar, ya'ni muallimlar o'z o'rnidan pastga quladilar, doira esa bo'shab bormoqda. Agar bu ketishda davom etsa, asos bo'lgan doirada xizmat qiluvchi munosib muallimlar qolmasa, boshqa doira ichida bo'lgan tizimlar ham o'z navbatida harakatsizlanadi. Qolmasa deganda mutloqni nazarda tutmadim. Chunki har doim har qanday jamiyatda insofli, vijdonli, bilimli va asosiysi, mard bo'lgan mas'uliyat egalari topiladi. Lekin ularning adadi hamma narsani hal etadi. Men-ku hali bir muncha yoshman, lekin o'qiganlarimdan bilamanki, muallimni darajasi bu – bugungi daraja emas. Chunki buni sog'lom holatda fikrlab, mantiq asosida tushunib yetish ham mumkin. Muallim so'zini eshitganda o'quvchining eti jimirlab ichi bir hisga to'lmayaptimi, demak, u muallim o'z nomiga loyiq muallim emas. Albatta, bu ham bir doira asnosidagi mavzu va bu doira ichida o'quvchining tarbiyasi ham katta rol o'ynaydi. Lekin men o'z hayotimdan bilamanki, ayni bir tarbiyaga ega o'quvchi bir nechta muallimga, kimligidan kelib chiqib muomalada bo'ladi. Ya'niki, bugun ustozlarga ko'rsatilayotgan muomalada faqat o'quvchilarnigina emas, bir qator muallimlik kasbini da'vo qiluvchi shaxslarni ham ayblashga haqlimiz. Lekin bu bilan bir ish hal bo'lmagani uchun yechimga kirishganimiz ma'qul deb o'ylayman.

#### Yechim:

Maktablarda aytib o'tganimizdek, yosh jihatdan ham o'qituvchilardan bir muncha qo'rqqani uchun ham balki, hurmat masalasi hali yo'qolmagan, universitetlarda esa diplom olish, semestrni yopish masalasi bor. Lekin bugun bozor iqtisodiyoti har sohada borki, moddiylikka bog'lanishiga sabab bo'ldi. Bunga qarshi chiqish mumkin emas, aksincha, buning foydasi ko'p ekani ham ma'lum. Lekin ayni ta'lim tizimida, moddiylik muallimni muallim emas, pedagogik xizmatlar sotuvchisiga aylantirib qo'ydi. Bu xususiy muassasalar masalasi, ya'niki bugungi kunda avj olgan repetitorlik. Maktablarda esa yuqorida aytib o'tganimiz kabi bolalik vaqtidayoq o'quvchini jamiyat hayotiga tayorlash lozim. Qachon, kim bilan, qanday muomalada bo'lishni o'rgatish shart va zarur. Maktablarda ota-onalar yig'ilishlari har hafta tashkillanishi va albatta, ular bilan davomat, maktab fondi kabi masalalar emas, bolaning tarbiyasi muhokama qilinishi va bu muhokamada istalgan mutasaddi shaxslar qatnashish huquqi berilishi, menimcha, ota-ona va maktab o'rtasida bir ko'prik vazifasini o'tab beradi. Bugun ota-onalar majlislarida doimiy moddiylik, yig'imler haqida tinimsiz va'zlar o'qilayotgani uchun ota-ona maktabga borib farzandini nazorat qilishni istashmaydi. Balki, qochishadi. Muallimlarning o'ziga kelsak, maktab va bog'chalar, kollej va universitetlarda muallimlarni ishga olish huquqini ayni tashkilot rahbarlaridan olib buning uchun har bir tuman va shaharda bir ma'sul shaxslar kengashini tuzish va bu kengashga halqumi toza shaxslarni jalb etish va ayni shaxslar ta'lim dargohlarida bilim berishni istovchi kadrlarni munosib va yoki nomunosib deb topishi eng oliy vazifa deb o'ylayman. Chunki bugun bir munosib bo'lmagan muallim ta'limini olgan 20 nafar yosh avlod ertaga jamiyatga 20 ming nomunosibni tuhfa etmasligiga kim kafolat beradi? Boshida aytganimizdek, bu ham muammoning – tugunning bir qismi. Lekin qismma-qism, eshikma-eshik muammoni yechishga urinmas ekanmiz, muammoning muhokamasi va yana bir qog'ozbozlikdan uyog'iga o'ta olmaymiz. Yuqorida tilga olganim xususiy ta'lim dargohlarining bolalab ketishi, birinchi navbatda, bugun maktablarda davomat reytingini eng quyi pog'onaga tushishigacha olib keldi. Ikkinchidan esa, o'quvchi maktab oldidagi majburiyati va maktab dargohidagi ma'suliyatini his etmaydi. Bola ongida maktabdan ko'ra pulli ta'lim beruvchi ko'proq naf beradi degan fikr

rivojanadi. Bir hisobga bu to'g'ri fikr. Aslini olganda xususiy ta'lim kurslari maktab yoki kollejdani ko'ra yoshlarga anchagina ko'proq bilimni o'rgatishmoqda. Lekin tarbiya berish masalasida 0 ga teng desak mubolag'a bo'lmaydi. Xo'sh, tayyor bepul tizim turganda nega ota-ona pul to'lab farzandini pulli ta'lim olishini istaydi? Javobi oddiy: Oliy ta'limga kirish imtihonlari juda murakkab. Bu murakkab testlardan o'tgan o'zimiz guvoh bo'lganim talabalar ba'zi fanlarda muallimdan ko'ra bilimliligi, muallimlar uni jalb eta olmayotgani, uning sezilarli darajada yuqori bilimga ega emasligi talaba ongida diplom olsam bo'ldi, men tayyor ekanman degan fikrni uyg'otadi. Buning hammasi yuqori darajadagi testlarni yechish uchun bir necha yil xususiy muassasada tinimsiz qat'iy rejimda o'qish va oliy ta'limda erkinlikning paydo bo'lishidir. Ishonch bilan aytaman, maktab va kollejlarda bu imtihondan o'tish uchun yetarli bilim berilmaydi. Bu o'z o'zidan talabni keltirib chiqaradi va albatta, diplomli, bilimga ega har qanday shaxs bu holatdan foydalanib qolishga va daromad topishga intiladi. Buni yomon tomoni yo'q, albatta. Lekin jamiyatni bilimli tarbiyasizlar bilan to'ldirgandan nima naf? Davlat o'rta ta'lim uchun millionlarni, milliardlarni nega sarflamoqda? Oylik olayotgan muallimlar bolalarga enagalik qilishi uchunmi? Ochig'i, yillar davomida maqbul yo'l topa olmayotgan oliy ta'limga kirish imtihonlarini mutlaq maktab programmasiga moslashtirish va hattoki, maktabni oliy maqomda bitiruvchilarni rag'batlantirish kabi masalalarni tubdan tahlil etish va joriy qilish kerak, mening nazarimda. Va Oliy ta'lim tizimimizdan grand asosida o'qitishdan mutlaqo voz kechib bir xil o'rta hisobdagi summada talabalar kontrakt to'lashini joriy etish kerak. Chunki bu olinayotgan va berilayotgan bilim qadrlarining bir hisobda oshishiga sabab bo'ladi. Tasavvur qiling, maktabda har chorak imtihon bo'lsa va munosiblar o'tib nomunosiblar qayta to'lov evaziga o'qisa, oliy ta'limga kirish qiyin bo'lmay, maktabda munosib o'qiganlar kira oladigan daraja qo'yilsa va universitetlarda ham kontrakt asosida o'qitilib semestr yakuni imtihon orqali talabalar saralansa.

Bu holatda va bunday tizimda kim ham o'qimaydi deb o'ylaysiz? Ayni shu tizimda har bir talaba, hattoki, ongiga diplom uchun o'qish fikri o'rnashganlar ham hatto diplom olish uchun ham, qayta va qayta pul sarflamaslik uchun ham bilim oladi. Maktablarda o'quvchilar muallimlardan faqat bilim olishni istashadi. Va bu holatda xususiy ta'lim muassasalari o'z-o'zidan yo'qolib, eng munosiblarigina qoladi, albatta, raqobatdosh bo'la olganlari.

## Ta'lim dargohlarida xavfsizlik tizimi. Biz yoshlar hayotiga qanchalik ma'suliyatlimiz?

Har bir shaxsning, oilaning, jamiyat va davlatning o'z tashqi va ichki chegaralari bo'lishi tabiiy hol. Bilamizki, tashqi chegara davlat miqiyosida, eng avvalo, xavfsizlikka xizmat qiladi. Yaratganga shukrlar bo'lsinki, davlatimizning tashqi chegaralari mard askarlarimiz, fidokor o'g'lonlarimizning tun-u kun qilayotgan xizmatlari evaziga tunlari osuda uxlab, erta tongda oilamiz bilan xotirjam nonushta qilishimiz mumkin. Tinchlik bu – ulug' bir ne'matdir. Endi ichki chegaraga kelsak, davlatning ichki chegaralari ham bo'lib, bular davlat organlari va davlat tasarrufida bo'lgan, ya'ni, xususiy bo'lmagan har joy deyishimiz mumkin. Va bu chegaralar ham qo'riqlanadi. Ya'ni, biz hokimiyat, bank hududlariga kirar ekanmiz, albatta, ularning ichki qoidalariga bo'ysunishga, belgilangan vaqtda kirib, belgilangan muddatda chiqish bizning majburiyatimiz hisoblanadi va bu nazorat qilinadi. Bu tabiiy va tushunarli holat. Biz bilamizki, ta'lim muassasalari ham davlat mulki bo'lib uni muhofasaziga, davlat mas'ulidir. Nega endi bank, soliq tizimi va undagi pullar, hokimiyat binolari va u yerdagi shaxslar davlat tomonidan qo'riqlanadi-yu butun bir davlat, yurt kelajagi bo'ladigan yosh avlodlar, bir yerga

to'planadigan dargohlar muhofasaziga e'tiborsizmi? To'g'ri, balki biroz bo'rttirayotgandirman, lekin oddiqlik jihatdan o'ylab qaraganda ham nega bog'cha, maktab va universitetlarda qo'riqlash tizimi yo'lga qo'yilmagan? Bu o'ylanarli vaziyat. Bugun qorovullik qilib oylik olayotgan shaxslar o'zimiz kabi fuqaro. Ular harbiy tayorgarlikka, hushyorlikka va yetarli bilimga egami ayni sohada? 90% holatda yo'q deyishga majburman. Shaharlarda-ku e'tiborga olingandir bu jihatlar, lekin tumanlarda va qishloq maktablarida bu sohada nafaqaga yaqin yoshdagi shaxslar, aliment to'lovchi yigitlar, ishsizlar, kamdan-kam holatlarda esa rahbarning yaqin qarindoshlari bu o'rinni band qilishadi. Endi o'ylab ko'rish kerak, bu qoniqadigan holatmi? Biz bir davlat sifatida farzandlarimiz ta'lim olayotgan dargohlar xavfsizligiga mas'ul qilib qo'shnimizni, akamiz yo ukamizni ko'rish yaxshimi yoki harbiy xizmatni o'tagan bilim va tajribaga ega shaxslarni ko'rish quvonarli? Yaratganga shukurlar bo'lsin, Vatanimiz tinch va osuda. Xavf va xatardan mutlaqo yiroqmiz. Lekin yechilishi kerak bo'lgan bir tugun ayni xavfsizlik sohasidaki, aslida butun ta'limni ayni soha boshini ushlab ham boshqarish mumkin.

### Yechim:

Men bugun yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan anchayin targ'ibot ishlari, ajratilgan mablag'larni ko'rib bir qator quvonaman. Lekin bu uzil-kesil jinoyatchilikni yo'qotdik degani emas. Kimdir, balki buning iloji yo'q deb o'ylar, lekin bu men emas. Chunki o'ylab ko'raylik, har yer qo'riqlanadi, hamma qo'riqlanadi, lekin asos bo'lgan maktab, va bolalar nega himoyasiga nega e'tibor kuchaytirilmasligi kerak. Bugungi kunga kelib yoshlarda vatanparvarlik ruhi so'nib bormoqda degan farazlarga javoban, buning asosiy sababi yoshlar erkak muallimlardan ta'lim olmayapti, yoshlarni harbiy sohaga qiziqtirish, jalb etish, e'tiborini jalb etishga ojiz qolmoqdamiz. Tasavvur qilaylik, bir maktabda bir kishi uchun qurilgan, sharoitlarga ega bir xona qurilsa va yillik harbiy xizmatni tugatib, yana bir qancha kerakli bilimlarni o'zlashtirgan ikki nafar harbiy navbat bilan, 12 soat yoki 24 soatdan o'rin almashinib maktab xavfsizligiga mas'ul etilsa. Va bu harbiylar xuddi xizmatdagi yigitlar kabi har 6 oy yoki bir yil muddatda boshqa maktabga bilan o'rin almashinsa qanday imkoniyatlar tug'iladi? Birinchidan, yoshlar maktab hududida anchayin mas'uliyat bilan harakatlanadi. Ikkinchidan, yoshlar maktablik davridanoq harbiylar bilan jonli muloqot qila olishadi, bu ularda harbiy sohaga qiziqishini oshiradi, vatanparvarlik ruhini jo'shqinlantiradi. Bir qishloq yoki mavzeda bitta maktab bo'lsa, bu hududga bitta mas'ul inspektor javobgar. Yaqinda eshitgan ma'lumotlarimga ko'ra inspektor muallimlarga o'quvchilar davomatini yaxshilashga ko'maklashayotgan ekan. Endi o'ylab ko'ring, hudud inspektori mahalla tinchligini ta'minlasinmi, hududidagi IIB ga hisobot tayorlab bersinmi, o'quvchilar bilan shug'ullansinmi? To'g'ri, bularni amallash mumkin, lekin biz amallaydigan ma'suliyat emas, bor e'tibor bilan bajarilishi kerak bo'lgan ishlar ustida suhbatlashyapmiz. Uchinchidan, endi bitta mahallada bitta hudud inspektori va doimiy bir harbiy, agar buni maktabgacha ta'lim tizimiga ham qo'llay olsak ikkita doimiy ish harakatidagi harbiy mas'ul bo'lib, bu mahallada, mening fikrimcha, jinoyatning hech bir turi sodir etilmaydi. To'g'ri, harbiy va ichki ishlar inpektorlarining vakolatlari bir-biridan farq qiladi, biroq tinchlikni ta'minlashda bu vakolatlar doimo birlashadi. Bu bilan bu soha bilimdonlari chuqurroq shug'ullansa maqsadga muvofiq bo'lardi. To'rtinchidan, maktab hududiga bevaqt begona shaxslar kiritilmaydi, maktab o'quvchilari esa kutuxona va kompyuterdan istagan vaqtida istagancha foydalanishiga imkon berilib uzluksiz nazorat qilinadi. Mening fikrimcha, bu holat, eng avvalo, chekka hududlardagi maktablarni shahardagi maktablar bilan erkin aloqasini ta'minlab, yoshlar ongida hayot mazmuni pul topib, oyla boqish emasligi, davlat ular uchungina harakat qilayotgani va aynan ularning o'zi Yangi O'zbekiston ekanligiga ishonchlari ortib, o'zga



bir ishtiyoq bilan intilishlariga imkoniyat yaratiladi. Bular xavfsizlik jihatdan erishishimiz mumkin bo'lgan ijobiy jihatlar. Endi agar aynan shu holatda maktab va universitetlarda har bir xonaga kamera o'rnatilsa va bu kameralar yuqoriroqda tilga olganimiz, muallimlarni ishga oluvchi mas'ul shaxslar tomonidan va bir holatda mas'ul harbiylar tomonidan doimiy kuzatilib turilsa, muallim va o'quvchi o'rtasidagi munosabat va albatta ta'lim tizimimizning nurab ketgan nuqtalarini ko'rishimiz mumkin. Bizda doimo tekshiruvchilar kerak ekan, ularning kelishi ayni maktab ma'muriyatiga bir necha kun avval aniq xabar bilan yetib keladi va hamma tayyor bo'ladi. Bu sirk tomoshasiga, o'xshaydi. Nima tekshiruvchilar sayohat uchun kelganmi? Agar bu holatni to'g'ri yo'lga qo'ya olsak, anchagina qog'ozbozlikni ham oldini olgan bo'lar edik va ayni joyda faqatgina munosib shaxslargina qolishadi. Bu bir necha yilda ta'lim sifatini oshiribgina qolmay korrupsiyani ta'lim tizimidan bir muncha surib chiqaradi. Ota-onalar esa har holatda farzandi uchun davlat jon kuydirayotganini yaqindan his etib bilim uchun imkoniyat yaratib berishadi. Chekka chekka qishloqlardan tortib, yirik shaharlarimizgacha butun yoshlar davlatimiz qudratini yaqindan his etadi va ishonch bilan harakat qila boshlaydi...

## Ta'limni tarbiyadan ajralishi. XXI asr. Rivojlangan, tarbiyasi buzuvchi, ertasi mavhum tizimlar.

Inson bilimli, hattoki olim bo'lishi mumkin, biroq tarbiyasiz bo'lsa, hissiz bo'lsa, qo'rqamanki, jamiyatga foydadan ko'ra ko'piroq zarar yetkazadi. Bunga tarix bir necha marta guvoh bo'lgan. Qurolni ham, atom bombasini ham olimlar ixtiro etishgan. Bundan qanday foydalanish, qanday chora ko'rishga kelsak, qadimdan bir rivoyat bor: bir kuni odamlar bir odamdan so'rashibdi: Pichoq va xanjarlar odamni o'ldiradi, bu ashyolar bizga harommi? Shunda javob shunday bo'lgan ekan, biz pichoq va xanjarlar o'ldiradi deb ularni ko'mib qo'ymaymiz, ya'ni ulardan voz kechmaymiz, aksincha, ularni to'g'ri ishlatish ilmini olamiz. Menimcha, bundan go'zal javob bo'lmasa kerak. Biz insonlar ko'proq ko'zimiz bilan ko'rgangagina ishonamiz, uning ortidagiga emas. Bugun biz havas qilayotgan, yoshlar ko'r ko'rona ergashib ketayotgan o'sha g'arbliklarning "ommaviy madaniyati" ni asl tub asosi qanday bo'lgan. Bu yo'l oxiri qayerga olib boradi barchasi mavhum. XXI asrda yashayapmiz degani bu bizni tarbiyasiz bo'lishimiz kerak degani emas. Bu orada bir savol bersam. Tasavvur qiling sizga ikki kishi o'rgatmoqda;

1. Agar pora olsang yoki bersang 5-10 yilga qamalasan. 2. Agar pora olsang yo bersang abadiy jahannamda yonasan.

Bu ikki holatda qaysi biri ta'sirli va samaraliroq? Albatta, abadiy azob. Odam agar bir necha milliard mablag'ni o'zlashtirib bir necha yil ozodlikdan mahrum bo'lishga tayyordir, lekin qancha katta mablag' bo'lsa ham abadiy azob oldida qiymatsiz ekanini ich ichidan his etadi, agarda unga o'rgatishsa.

Yechim:

Bu borada uzoq to'xtalmayman. Chunki buni barcha iymonli kishilar, ziyolilar ich-ichidan tushunib, anglab turishibdi. Menimcha, maktablarda musiqa, mehnat kabi ba'zi fanlardan cheklanish vaqti keldi. Ularning o'rniga asosiy e'tibor dunyo uchun muhim bo'lgan ,matematika, fizika, ona tili va adabiyot, kimyo biologiya kabi muhim fanlarga qaratilishi va ular orasiga Islom dini asoslari, dinlar tarixi nomli fanlar qo'shilishi manfaatliroq bo'lardi va bu jamiyatda odob axloqni rivojiga hissa qo'shgan hisoblanardi. Xalqning bor tashvishi mol dunyo vasvasasi emas,

millat, davlat, jamiyat rivoji bo'ladi. Xalqimiz – j u da saxiy xalq. Ularga haq yo'l ko'rsatilsa va bir avlod haq yo'lda tarbiyalansa bas, yillar davomida O'zbek degan nom dunyo xalqlari orasida hurmat va ehtirom topadi. Ilm yurti tinchlik o'lkas deb e'tirof e'tiladi. Hattoki, biz qo'rqan terroristik tashkilotlar ham yoshlarimiz ongini zaxarlashga qodir bo'lmaydi. Chunki ular aslida din nima ekanini, Islom tinchlik, ilm dini va bunga chaqirishini anglab yetishadi. Men iltimos qilgan bo'lar edimki, bu ayni bir haqiqatdir. Buni qachon tan olar ekanmiz, ana o'shanda o'zligimizni, kechagi kunimizni, unitilayotgan, kitoblarda qolayotgan qudratimizni his eta olamiz va bunga erishamiz. Biz qarsakbozlik, kibr va maqtanchoqlikdan voz kecha olishimiz kerakki, buyuk tariximizga munosib bo'la olaylik. Dindan, asl etiqoddan xabardor yoshlar XXI asrning yetuk insonlari ertasi mavhum bo'lmagan aniq jamiyatning yoshlari egalariga aylanishadi.

## OAV. Media. Tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarning ta'siri.

Bugun OAV va Media haqida shu qadar ko'p gapirilmoqdaki, ularni ko'rib bu tizimlarni endi to'g'rilab bo'lmasmikan deb o'ylab qoladi kishi. Yoshlar o'rtasida tamaki chekish, spirtli ichimliklar ichish, tungi kulublardagi maishatlar – bugun hayot tarzimizga shu qadar singib ketdiki, qiz onasidan, bola otasidan ruxsat so'rab yo so'ramay xohlagan payti xohlagan joyida xohlagan ishini qilishga o'zida jur'at topa olmoqda. Buning negizi asl muammo qayerda? Nega buni hech kim yechmayapti? Nega eng muhokamali bo'lgan bu tizimlar o'z o'zidan rivojlanmoqda-yu hech kim ulardan hisob so'rashni joiz bilishmayapti? Sababi hamma faqat fikr bildirmoqda, hamma muhokama desa talashib tortishib o'z fikrini qo'llab quvatlamoqda, lekin tashqi va xolis nazar bilan boqadigan odam topilmayapti. Sizga bir oilani, har kimniki bo'lishi mumkin bo'lgan oilani misol keltirsam. Tasavvur qiling, bir ona kunduzi ishlaydi, bir ota u ham ro'zg'or tashvishi bilan band. Buva va buvi bo'lsa ulardan nimadir kutish mumkin, lekin bu oila qaysi vaqtda birdamlashadi va birgalikda qachon farzandlarga tarbiya berishadi? Bu o'ylantiradigan savol. Erta tong oila a'zolari uyqudan turishadi, nonushta qilinar ekan TV yoniq holda bo'ladi. Bu unchalik muhim emas. Chunki hamma ishga, bolalar maktab va bog'chaga shoshilishadi. Bolalar qaytgach, balki dars, balki telefon bilan band bo'lishadi, kechga yaqin ota va ona ham ishdan qaytishadi. Asl tugun ayni shu yerda tuguladi. Hamma bir dasturxon ustida ovqatga o'tirishar ekan hammaning asosiy fikr-u xayoli uy to'risidagi televizorda bo'ladi. Televizorda bu vaqt har qaysi kanaldan hafta davomida qismma-qism efirga uzatilayotgan o'zbek yoki turk yoki boshqa davlat seriali bo'layotgan bo'ladi. Ba'zan futbol vaqtini hisobga olmaganda, serial, albatta, ko'riladi. Serialda kiyimini ko'rib insonning shahvati jo'shadigan holatlar, jirkanch, hayo pardasidan ko'tarilgan so'zlar bilan erkalashlar kuzatiladigan sahnalar har bir qismda bir nechta topiladi. Tasavvurdan chetlanmang. Bu holatda ota va ona, bobo va buvi, farzandlar. Ertaga bu muhitda o'sgan bola opasi, singlisi, akasi, ukasi, hattoki otasi va onasidan hayo qiladimi. Uyalish hissini tugadimi? Mana aynan shu savol mutasaddilarga, madaniyat degan nom ostida ishlayotganlar yuziga bir tarsaki o'laroq urilmog'i kerak. Bu muhokama, bu masala shu qadar ko'p tilga olinganidan, go'yo bo'lishi kerak bo'lgan tabiiy holat deb qabul qilana boshladi. Birodarlar, aziz vatandoshim, millat tafakkurini zaxarlashmoqda. Bugun dushman qurol ko'tarib chegarani buzib o'taman deb xayol qilmayapti. Bugun dushman qon to'kmay millatlarni, davlatlarni qo'lida qo'g'irchoq qilishni maqsad qilmoqda. Hushyor bo'laylik. Kurashaylik. Yoshlar deb bong urmoqdamizmi, endi jonimiz bilan imkonimiz

yetganicha Alloh taolo qodir qilganicha haq yo'lda, jamiyatimizda nima madaniyatimizni badbo'y hidi bilan bulg'ayotgan bo'lsa, uni yulib tashlaylik.

Yechim:

Xolis bir inson sifatida televidiniyaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Bir kun vaqt ajratib, ertadan to kechgacha beriladigan ko'rsatuvlar tartibiga bir nazar tashlang. Har bir kanal bundan mustasno emas. Bu kanallarda bir biriga o'xshash, siyqasi chiqqan ovqatga aloqador o'nlab ko'rsatuv ko'rish mumkin. Seriallarning ma'no va g'oyasi ham bir xil bo'lib aktyor va aktrisalar bilangina farqlanadi. O'rnak bo'lishi kerak bo'lgan bir nechta ko'rsatuvlarda esa o'zi ajrashgan ayol yosh oilaga maslahat berganini, yarim yalang'och kiyingan o'rta yoshli ayol hadislardan misollar keltirib ibo-hayo haqida bong urmoqda. Bir narsani tushunib yetaylik. Jamiyat bu bizmiz. U yomon-bu yomon deb kunda nolish emas, shu yomon illatni o'zimizda ko'rib, o'zgarishni o'zimizdan boshlaylik. Yaqinda shaxmatni rivojlantirish borasida qaror chiqdi. Bu, albatta, shiorlarda, e'lonlarda va bir nechta yangi shaxmat to'garaklari ochilishi bilan nihoyalandi va qachon so'ralganda esga olinish uchun arxivlandi. Qarorlar, farmonlar, qonunlar qog'ozlarni band etish uchun emas, jamiyat farovonligi va rivoji uchun ekanligini biz qachon anglaymiz axir?

Shaxmat to'g'risida qaror chiqishga chiqdi, ayni shu qaror munosabati bilan agar davlat hisobidan uyma-uy yurib har bir xonadonga shaxmat tarqatilsa, menimcha, kamida bitta mahalladan bitta shaxmat ustasi chiqadi, oilada ota va o'g'il, ona va qiz, aka-singil shahmat ustida aql ishlatib, fikr yuritishadi. Respublikamiz bo'yicha shunda yiliga kamida 150 dan ortiq shaxmat ustasi yetishib chiqadi. Xuddi shu kabi badiiy adabiyotlarni xalq sotib olmayaptimi, demak, biz xalqqa tutqazaylik. Chop etaylik, beraylik, xalqni nima qilib bo'lsa ham o'qitishimiz kerak, axir. To'g'ri, iqtisodchilar buni darhol hisob-kitob qilib darhol bir qancha summani keltirishadi, lekin bundan ziyod pullar kino, media sohasiga kunda, oyda sovrulmoqda-ku? Nega bu gapirilmaydi? Biz kinosiz, qo'shiqsiz qolsak ham davlat sifatida davlat bo'la olamiz. Lekin ilmsiz, jaholatda qolsak kechirasizlar-ku biz hech kim emasmiz. Bugun OAV endigina o'z darajasiga yaqin ishlamoqda, lekin gazeta va jurnallarchi. Bir nechta ziyolidan boshqa kim gazeta o'qiyapti? Hech kim. Nega? Chunki jalb, jalb eta olmayapti xalq qalbini. Nega televidiniyadagi ko'rsatuvlarda jurnalistlar emas, aksar aktyor va aktrisalar ko'rsatuv ochib olib, og'zidan chiqadigan gapni aqlida o'lchamay aljirashadi. Nega bu millatni qahramonlari bugun bir-birini sudga berib haqorat qilayotgan otarchi yulduzchalar bo'lib qoldi? Qaysi olim telekanalda har kuni bir marta ma'ruza qilmoqda? Telekanalda serial o'rniga romanlar o'qilishi mumkin. Izlasak, aytsak, mingta yo'l, lekin nega biz faqat o'g'irlaymiz, faqat bachkanalikka intilamiz. Qiziqchilar badiiy kengashdan qanday o'tmoqda? Shaxsan men otam bilan dasturxon ustida ovqatlanar ekanman, serial yoki kinoni qo'ya turing, qiziqchilik konserti bo'la tursa hijolatdan o'laman. Nega? Chunki qog'ozga o'rab-o'ramay hayosiz so'zlar bilan muxlis yig'ishmoqda. Kimnidir mazax qilmay, bachkanalik qilmay buni uddalay olishmayaptimi, demak, ular san'atkor emas. Ularni olqishlanishi uchun sahnaga qo'ymoqdamiz? Qo'shiqlarda, kino va kliplarda butun boshli media tizimida kitob ushlaganlar, kitob o'qiganlarga ko'zoynak taqib qo'yib ochiqchasiga kulishmoqda. Buni ko'rgan bola nazdida, kitobga qiziqish uyg'onadimi yoki zararli, chirkin hayotgami? Javobi tayin... bizda eski tuzumdan qolgan bir naql bor: "Hamma kitob o'qisa, molni kim boqadi, yerni kim chopadi?" Kechirasiz, aziz birodar, nega ilmni ushlagan, rivojlangan mamlakatlarda biz yer chopib, mol boqib, uy qurmoqdamiz? Barcha o'qisin, barcha ilm olsin, mana men sizlarga yer chopadigan, mol boqadigan odamni olib kelaman. Nega xohlashmaydi xalq ilm olishni deb o'ylamang. Xalqimiz azaldan ilmga tashna. Faqat ularga to'g'ri yo'l kerak va yo'qolgan ishonchini

qaytaradigan kuch kerak. Biz boshlab beraylik, xalqimiz o'z yo'ldan adashmaydi. Bilim ila ustuvor bo'lishadi.

Gapim so'ngida tamaki va spirtli ichimliklarni cheklashni ham taklif etaman. Chunki bu 7-8- sinf o'quvchilarini ham yo'ldan urmoqda. Bu chirkin odatdan voz kechadigan darajada buyuk davlatmiz. Bunga hech kim ta'ziyq o'tkaza olmaydi. Chunki biz mustaqil O'zbekistonmiz. Mustaqil xalqimiz. Agar jamiyat tamaki va spirtli ichimliklardan voz kechishini mamlakat, davlat sifatida istasak, avvalo, davlat sifatida o'zimiz bundan voz kecha olishimiz kerak. Bu har bir kasalliklarga aloqadordir. Biz kasallarimizni yashirishdan voz kechaylik, davolaylik, oyoqqa turaylik...!

**Xulosa:**

Men bir yosh fuqaro va yurt kelajagiga befarq bo'lmagan, musulmon o'laroq, qiyinchilik bilan erishilgan mustaqillikni, "mustaqil qaramlik"ga almashtirib qo'yishdan qo'rqqan holda, ta'lim va tarbiya sohasini islohotga muhtoj ekanligini ko'rdim. Muhtojligimiz aniq bo'ldimi, bas, yangi nomi bor-u amali yo'q yangi tashkilot tuzib, shiorlar osib jar solmaylik. Qarorlarimizni xalq amallarimizdan bilib olsin. Har bir o'rinda munosiblarnigina olib qolaylik. Nomunosiblar asli munosib o'rniga tushsinlar. Har bir ma'sul shaxs mas'uliyatni his etgan holda, dunyoviy nafsidan kelib chiqib emas, vijdonining oldida adolat qilib o'ziga baho bersin va bu adolat bilan ish yuritsin. Shunda vatanimiz o'z o'zidan gullab yashnaydi. Dunyo madaniyati, bilimining o'chog'iga aylanadi, xuddi tarixda bo'lgani kabi...!

So'zimni Turk sultonlaridan bo'lgan Fotih sultonga aloqador hikoya bilan tugatsam." Muallim har kuni poshsholarning farzandlari va sulton o'g'li yosh sulton Fotihga ham dars berar ekan, Fotih sulton doim muallimga nisbatan beodoblik qilar, muallim dakki bersa, mening otam sulton deb, otasini qalqon qilarkan. Sabri tugab, andisha qilishdan charchagan muallim sulton huzuriga kelibdi va voqeani bayon etibdi. Shunda sulton Murodxon II muallimga bir nimalar deb shivirlabdi. Muallim esa "Yo'q. Sultonim, bunga haddim sig'mas, bu bo'lishi mumkin emas", - debdi. Sulton esa bu ish bo'ladi deb muallimni quvvatlantiribdi. Ertasi kuni ham muallim dars berarkan, Fotih sulton yana sho'xlik qilibdi. Muallim dakki berarkan yana otasini, sultonni qalqon qilibdi. Shu payt eshikdan sulton kirib kelibdi. Muallim esa: bu ne odobsizlik, nega dars vaqti eshikni beso'roq ochasiz, tashqariga chiqing va izn so'rab kiring deb sultonga baqiribdi. Shunda sulton hijolat tortib eshikni yopib tashqariga chiqibdi va qayta izn so'rab kiribdi. Kirib hijolat ichra uzr so'rab, qaytib chiqib ketibdi. Bu holatni ko'rgan yosh sulton Fotih muallimga qayta beodoblik qilmay bilim olibdi. Va biz bilamizki, bu kichik ishdan so'ng Fotih sulton buyuk nom bilan tarixda qoldi". Qarang, birodar, sulton Murodxon II ta'lim va tarbiyani, ilmni qanchalik e'zozlagan. Hatto o'zini hijolatli holatga tashlashga ham ko'ngan. Biz nega oddiy odamlar bo'la turib bu fidokorlikni qila olmaymiz? Bu bizning ham qo'limizdan keladi. Bunga biz ham qodirmiz...

Assalomu alaykum va rahmatullohu va barakotuh...

Muallif: Asadbek G'ofurov Jo'rabek o'g'li